



YANGI O'ZBEKISTONDA MAHALLA KO'RKI

Sanginova Irodaxon

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix va falsafa kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7439600>

ARTICLE INFO

Received: 04th December 2022

Accepted: 13th December 2022

Online: 14th December 2022

KEY WORDS

Fuqaro, Mahalla, Konstitutsiya, Denov.

ABSTRACT

Inson qadrini ulug'lash-yurtimizda yashayotgan har bir odamning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash demakdir. Bu borada jamiyatimiz asosi bo'lgan mahalla hal qiluvchi o'rin tutadi. Mahalla hal qiluvchi o'rin tutadi. Mahalla tinch bo'lsa, yurt tinch bo'ladi. Mahalla obod bo'lsa, Mamlakat obod bo'ladi. Shu bois, bundan buyon har bir mahallada samarali ish olib borish faoliyatimizning bosh me'zoniga aylanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Mahallalarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasiga¹ va 1993-yil sentabrda qabul qilingan „Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida“gi qonunga binoan, Mahallalar o'z huquqiy maqomiga ega bo'lib, mahalliy hokimiyat tarkibiga kirdi. Mahallalar davlatning joylardagi muhim tayanchi, yuridik shaxs sifatida o'z mol-mulkiga, moliyaviy byudjetiga, bankdagi hisob kitob raqamiga — jamg'armasiga egadir. Bu qonunga asosan, har bir Mahalla o'z hududida ishlab chiqarishni tashkil etishi, kichik korxonalar ochishi, o'zi ishlab chiqargan mahsulotni sotishi, uning bir qismini Mahalladagi ehtiyojmandlarga bepul tarqatishi, o'z hududidagi aholini ish bilan ta'minlashi, aholiga madaniy maishiy xizmat ko'rsatishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida jami 9627 fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi

faoliyat ko'rsatadi, shulardan 6855 tasi yuridik shaxs maqomiga ega. 2021-yil 5-mart kuni Vazirlar Mahkamasining «Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, O'zbekistonda har bir mahallaning ID identifikasiya raqami va hududiy chegarasi ko'rsatilgan yagona elektron ma'lumotlar bazasi joriy etildi. 2021-yil 1-aprelgacha quyidagilar ishlab chiqilib, joriy etildi:

- har bir mahallaning ID identifikasiya raqami va hududiy chegarasi ko'rsatilgan yagona elektron ma'lumotlar bazasi;
- ota-onalik huquqidan mahrum etilgan ota-onalar hamda vasiylikka va homiylikka olingan bolalar va oilaga tarbiyaga berilgan (patronat) bolalar bo'yicha elektron ma'lumotlar bazasi;
- davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar bo'yicha

¹O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2012yil



tegishli ma'lumotlarni o'z ichiga oladigan yagona elektron axborot tizimi; fuqarolarning avtotransport vositalari sozligi yoki nosozligi bo'yicha elektron ma'lumotlar bazasi mavjud.

Biz bilamizki Mahalla vatan ichra kichik vatandir. Bugungi kunning eng dolzarb mavzularidan biri bu mahalla tushunchasidir.² Bu borada Surxandaryo viloyatida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda³. Denov tumani Surxandaryo viloyatining ko'zga ko'ringan, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, manaviy, hayot sohalari rivojlangan tumanlaridan biridir. Bu to'g'risida Sayfulla Tursunov, Toshtemir Turdiyevning Denov, Toshtemir Turdiyevning Denov Qasidasi, Denov e'tirof va ehtirom, Denov tafakkur charog'lari nomli kitoblarida ko'rishimiz mumkin. Denov tumani 1926 yil 29 sentyabrda tashkil topgan. Maydoni 0,819 ming kv.km (81 ming 933ga) Chegara uzunligi (155,8) xonadonlar soni -64 371 ta Oilalar soni-98 400 ta ni tashkil etadi. Bugungi kunda Denov tumanida to'qson sakkizta (98) mahalla mavjud bo'lib, bular Oloviddin, Bog'i Shamol, Vodiy, sanoatchilik, Yangi xayot, Nurli manzil, Z.M. Bobur, Bahoriston Ibn sino, Bog'i Nav, O'rikzor, Buyuk kelajak, Totuvlik, Guliston, A. Jomiy, Nuriston, Quyoshli yurt va h.k. Xonadonlar soni -64 371 ta. Oilalar soni-98 400 ta. Milliy tarkibi: O'zbeklar (84,1%), Tojiklar (14,5%), Qirg'izlar (0,1%) boshqa millat vakillari (1,3%) tashkil etadi. Denov tumanida maktablar soni 103 ta, jami MTM

²T. Turdiyev Denov qasidasi. Toshkent "Universitet" 2012

³S.N. Tursunov. D.T. Yakubova. Surxandaryo tarixi.

soni 308 ta, kutubxona soni 1 ta, Sog'liqni saqlash muassasalari 30 ta Masjidlar soni 14 tani tashkil etadi. Tumandagi jami axoli soni 399963 nafar, shu jumladan erkaklar soni 204345, ayollar 195618 nafarni tashkil etadi. Biz bilamizki Mahalla vatan ichra kichik vatandir. Mahallaning gullab yashnashi uchun mahalladagi har bir fuqaro qo'idan kelgancha harakat qilmog'i lozim.

Hozirgi paytda Denovdagi mahallalarda bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida, o'z faoliyatlarini tashkil etishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratildi.⁴ Ular, to'y -ma'raka marosimlarini o'tkazish, hasharlar uyushtirish, oilaviy nizolarni bartaraf etish, bemorlar holidan xabar olish ishlari bilan shug'ullanadi. Tumandagi ko'pchilik mahallalarning o'z masjidi bor, turli ma'rakalar uchun kerakli ashyolar (doshqozon, idishtovoq, choynak-piyola, tobut va boshqalar) mavjud. 90-yillarda mahalla hokimiyatning rasman quyi yuridik organiga aylandi.⁵ Mahalla vazifalari ancha kengaydi, u demokratik davlatning eng muhim bo'g'inlaridan biridir.

Mahalla va uning aholisining ham ijtimoiy-iqtisodiy, ham madaniy yuksalishiga har tomonlama yordam berish, milliy an'ana va urf-odatlarini boyitish, Mahalla qo'mitalari ishlarini muvofiqlashtirish, Mahallardagi kam ta'minlangan oilalar, keksalar, faxriylar, nogironlar, ko'p bolali oilalar, yetim-yesirlar, baynalmilalchilar manfa'atlarini har tomonlama himoya qilish maqsadida 1993-yil 17-avgustda O'zbekiston „Mahalla“ xayriya jamg'armasi tashkil etildi. „Mahalla“ gazetasi chiqq boshladi.

⁴Denov Tafakkur Charog'lari. Toshkent. "Universitet" 2010



O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. A. Karimov Mahallaning hozirgi zamon jamiyatidagi mohiyati va ahamiyatiga quyidagicha baho beradi: "O'z-o'zini boshqarishning xalqimiz an'analari va qadriyatlariga juda xos bo'lgan usuli — mahallalar tizimi so'nggi yillarda juda katta nufuzga ega bo'lib bormoqda. Ular amalda o'z huquqlaridagi barcha ishlar uchun mas'uldirlar. Zero, mahallaning qo'lidan kelmaydigan ish yo'q. Uning nufuzini ko'tarish, bilingki, nafaqat iqtisodiy, nafaqat ijtimoiy, balki bu siyosiy, tarbiyaviy, ulkan ma'naviy masaladir. Biz mahallalarga shu nuqtai nazardan qarashimiz lozim".

Denov tumanida har bir mahalla aniq tashkiliy tuzilmaga ega. ekanligi belgilab qo'yilgan.⁵ Unga mahallaning umumiy yig'ilishida saylanadigan mahalla kengashi rahbarlik qilib kelmoqda. Kengash o'z tarkibidan rasman mahalla yig'ini raisi (oqsoqol)ni, o'rinbosari va kotibini saylaydi. Bundan tashqari, mahalla kengashiga kekxa, tajribali kishilardan mahalla oqsoqoli maslahatchilari ham saylangan. Kengash huzurida to'y marosimlarini o'tkazish, xotin qizlar, yoshlar, urush va mehnat faxriylari bilan ish olib boruvchi, jamoat tartibini saqlash, obodonlashtirish, turar joy fondlarini saqlash va h.k. bo'yicha komissiyalar tuzulgan. Mahalla rahbariyati 2,5 yilga saylanadi va har yili aholi oldida hisobot beradi. Joriy masalalarni hal etish uchun mahalla kengashi oyda bir marta yig'iladi. Endilikda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yuridik shaxs

maqomiga ega bo'lib, belgilangan namunadagi muhrga ega hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarida ro'yxatga olinadi.

1998-yil 23-aprelda O'zbekiston Respublikasi „Prezidentning Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash haqida“gi farmoniga ko'ra, mahalla rahbariyatining (rais, kotib) faolligini oshirish, ijtimoiy muhofaza qilish va qo'llabquvvatlash maqsadida ularning ish haqi oshirildi, pensioner raislarga pensiyani to'liq olishlariga ijozat berildi. Natijada mahalla rahbariyatining manfaatdorligi va nufuzi ortdi.

Fuqarolik jamiyatini qurish, albatta, kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari bosqichma-bosqich o'tish orqali ro'y beradi. 1999-yil 14-aprelda O'zbekiston Respublikasining „Fuqarolarning o'z o'zini boshqarish organlari haqida“gi (yangi tahrirda) qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida tub burilish yasadi. Yangi tahrirdagi qonunning 7-moddasiga asosan, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tarkibiga kirmaydi deb to'g'ridan-to'g'ri belgilab qo'yildi.

Yuqorida sanab o'tilgan vazifalardan tashqari, mahallaga yangi vazifalar yuklatilgan. Bugungi kunda Denov tumanidagi mahalla oqsoqollari, hokim yordamchilari o'z hududida savdo va maishiy xizmatni, sanitariya va ekologik holatni nazorat qilishga ko'maklashmoqda, yong'in xavfsizligi, turar joy fondini saqlash, aholidan soliq va majburiy to'lovlarning o'z vaqtida to'lashini

⁵S. Tursunov. T. Turdiyev Denov Toshkent O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi "fan" nashryoti 2009



ta'minlashga yordam berib kelmoqda.⁶ Ana shu pul mablag'lari tushumining muayyan miqdori o'z-o'zini boshqarish organlari jamg'armasiga o'tkaziladi. Bu mablag' kam ta'minlangan oilalarning uy-joy, kommunal xizmatlari to'lovlariga, shuningdek, Mahallaning obodonlashtirishga sarflanadi. Endilikda, tumandagi har bir mahalla o'z madaniy markazini, guzarini qurib, shu yerda choyxona, novvoyxona, do'kon, maishiy xizmat shoxobchalari, turli sport o'yinlari maskanini barpo etmoqda. mahalla qo'mitasi tashabbuskor jamoat tashkilotidir. mahallada xo'jalik madaniy qurilish tadbirlarini amalga oshirish, uning hududini obodonlashtirish, uy-joylarni va hududdagi shahar xo'jaligini saqlash, ozodalikni ta'min etish, tartibqoidani mustahkamlash va h.k. uchun sharoit mavjud. Mahallalarning ahamiyati mustaqillik sharoitida kun sayin o'sib bormoqda. [2003-yil](#) O'zbekistonda „Obod mahalla yili“ deb e'lon qilindi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi [2003-yil](#) 7-fevralda qabul qilgan „Obod mahalla yili“ dasturiga binoan, mahalla. nufuzini ko'tarishga qaratilgan muhim vazifalar amalga oshirildi. „Obod qishloq“ va „Obod mahalla“ dasturlari doirasida tumanda ko'plab ishlar amalga oshirilib kelmoqda. Mahallalarga yangi inovatsion texnologiyalar olib kelinmoqda. Mahallalardagi har bir xonadonlarga toza ichimlik suvi bilan ta'minlanmoqda. Fuqarolarimizning yashash turmush tarzini yaxshilash,

Kambag'allikni qisqartirish, hamda ishbilarmon tadbirkorlarimizga tubdan yordam berish maqsadida yurtimizda xokim yordamchilari lavozimi ta'sis etildi. Ayni damda xokim yordamchilari javlon urib mehnat qilmoqdalar. buning natijasini esa biz qishloqlarimizning shaxarlashayotganligida, yoshlarimizning oliy malumotga ega bo'layotganligida, fuqarolarimizning dunyoqarashining kengayotganligida ko'rishimiz mumkin.

⁶T. Turdiyev Denov qasidasi. Toshkent „Universitet“ 2012



References:

1. T.Turdiyev Denov qasidasi. Toshkent "Universitet" 2012
2. Denov e'tirof va ehtirom. Toshkent Tafakkur 2014
3. S.Tursunov. T.Turdiyev Denov Toshkent O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi "fan" nashryoti 2009
4. Denov Tafakkur Charog'lari. Toshkent. "Universitet" 2010
5. Yakubova, D. (2022). SURXONDARYO TARIXI. LESSON PRESS.
6. Yakubova, D. (2021). Ўзбекистонда пахта яккаҳоқимлиги ва унинг натижалари. Tafakkur Avlodi.
7. Диларам Тажиевна Ёқубова (2021). СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА ИНГИЧКА ТОЛАЛИ ПАХТАДАН ЮҚОРИ ҲОСИЛ ОЛИШ АГРОТЕХНИКАСИНИНГ РИВОЖЛАНИШДА М.С.ИСТОМИННИНГ ФАОЛИЯТИ. Academic research in educational sciences, 2 (4), 1802-1810. doi: 10.24411/2181-1385-2021-00801
8. Ёқубова, Д. Т. (2020). Сурхондарё вилоятида ингичка толали пахтадан юқори ҳрсил олиш агротехникасининг ривожланишида м. с. истоминнинг фаолияти. Хоразм маъмун академияси ахборотномаси, 120-123.
9. Ёқубова, Д. Т. (2020). Сурхондарё вилоятида ингичка толали пахтадан юқори ҳрсил олиш агротехникасининг ривожланишида м. с. истоминнинг фаолияти. Хоразм маъмун академияси ахборотномаси, 120-123.
10. Nazirov, B. (2020). "IMOMUL HUDA-HIDOYATGA BOSHLOVCHI IMOM. MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS.
11. Dilmurod o'g'li, B. Q. (2021). A NEW STAGE IN DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND TAJIKISTAN. Eurasian Journal of Academic Research, 1(6), 64-66.
12. Xasanova, N. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА СОВЕТ ҲУКУМАТИНИНГ МАДАНИЙ-МАЪНАВИЙ СИЁСАТИ ВА УНИНГ НАТИЖАЛАРИ. "Tafakkur" нашриёти.
13. Ibragimovna, K. N., & Dilmurod o'g'li, B. Q. (2022). Karakalpak Baxshi and the Art of Music. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 3(5), 89-92.